

### 3-variant

1. Fuqarolik jamiyati tushunchasi – kishilik jamiyatining asrlar mobaynida shakllangan tafakkur mahsuli bo‘lib ... belgilanadi. Nuqtalar o‘rniga eng to‘g‘ri javobni belgilang.

- A) nodavlat va notijorat tashkilotlarining mavjudligi bilan
- B) inson huquqlari va erkinliklarining holati bilan
- C) davlat hokimiyatining bo‘linish prinsipiga amal qilishi bilan
- D) fuqarolarning davlatda yashayotganligidan mamnunligi bilan

2. Ma’lumki, fuqarolik jamiyatining amalda yuzaga kelishiga Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasining qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etgan. U qachon va qaerda qabul qilingan?

- A) Angliya, 1689 y
- B) AQSH, 1791
- C) Fransiya, 1789
- D) A va B

3. Quyidagilardan qaysi birining sotsial tabaqalar to‘g‘risidagi qarashlari, garchi uning asosida bilim, o‘qish-o‘rganish g‘oyalari qo‘yilgan bo‘lsa ham, uning mazmuniga ko‘ra aristokrat, oliy tabaqalar hukmronligining qonuniy ekanligini isbotlashga qaratilgandir?

- A) Aristotel
- B) Dun CHjunshu
- C) Konfutsiy
- D) SYUN-Szi

4. Davlatning har bir tabaqasi uchun o‘ziga mos mashg‘ulot, noyob hunar ajratilgan bo‘lsa ham, hukmdor va posbonlarni tarbiyalashning alohida sistemasi bo‘lishi kerak, ular musiqa va gimnastika bilan shug‘ullanishlari kerak. Bu esa ularni aql-idroki va Vatanga muhabbatini mustahkamlaydi, jismonan chiniqtirib, Vatan himoyasiga tayyorlaydi. YUqori tabaqa kishilari keyinchalik o‘z qiziqishlariga qarab arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa bilan shug‘ullanishlari mumkin. Ilm-fangina haqiqiy g‘oyani olib keladi, xayolotga o‘rin qoldirmaydi. YUqori tabaqa kishilari fanlarning, ayniqsa, falsafiy bilimlarning asosi bo‘lgan dialektikani o‘zlashtirganlaridan keyingina davlat ishlariga qo‘yiladilar, lekin hukmdorlik lavozimiga ellik yoshga to‘lib, yaxshilik g‘oyalarini davlat hayoti bilan bog‘lay olganlaridan keyingina qo‘yilishlari kerak. Davlatni boshqarish haqidagi ushbu qarashlar qaysi antik davr mutafakkiriga taalluqli?

- A) Aflotun
- B) Aritotel
- C) Suqrot
- D) Ksenofont

5. Fuqarolik jamiyati tabiiy huquq va erkinlik asosida mulkka egalik qilishi haqidagi g‘oyani muallifini aniqlang.

- A) Tomas Peyn
- B) Adam Smit
- C) Jon Lokk
- D) Jon Styuart Mill

6. Quyidagi mutafakkirlardan qaysi birining qarashlarida fuqarolik jamiyati – bu, avvalo, xususiy mulkka asoslangan ehtiyojlar tizimi, shuningdek, din, oila, tabaqalar, davlat qurilishi, huquq, axloq, burch, madaniyat, maorif, qonunlar va ulardan kelib chiquvchi sub'ektlarning o'zaro yuridik aloqalaridir, deb e'tirof etilgan?

- A) Tomas Gobbs
- B) Jon Lokk
- C) G.Gegel
- D) I. Kant

7. Adolatli jamiyat shakllanishining asosiy omili sifatida ... insoniy fazilatlar: adolatlilik, rahmdillik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, vatanparvarlik, vijdonlilik, insonparvarlik va jasoratni keltirib o'tadi. Nuqtalar o'rniga mos javobni belgilang.

- A) Beruniy
- B) A.Navoiy
- C) A.Temur
- D) Bobur

8. Quyidagi qaysi davlatda muayyan toifaga taalluqli bo'lgan hamkorlikning institutsional shakllaridan tashqari tasniflash oson bo'lmagan alohida funksiyalarga ega institutsional shakllar ham mavjud (Masalan, Xayriya ishlari bo'yicha komissiya)?

- A) YAponiya
- B) Fransiya
- C) Germaniya
- D) Buyuk Britaniya

9. Quyidagi qaysi davlat qirq yillik milliy suverenitetidan keyin rivojlanayotgan emas, rivojlangan mamlakat maqomini olgan Janubiy SHarqiy Osiyodagi yagona mamlakatlardan biri hisoblanadi?

- A) Tailand
- B) Singapur
- C) Janubiy Koreya
- D) Malayziya

10. Agar fuqaro o'z haq-huquqlari uchun kurashishga moyil bo'lsa, u haqda o'z bilim va qobiliyatini namoyon qilishga tayyor bo'lsa, bunda fuqaroviylikning qaysi darajasi namoyon bo'ladi?

- A) eng quyi
- B) o'rta

- C) yuqori
- D) standart

11. O‘zbekistonda 1995 yilgacha amal qilgan Jinoyat Kodeksida nechta jinoyatga o‘lim jazosi qo‘llanilar edi?

- A) 11 ta
- B) 22 ta
- C) 33 ta
- D) 44 ta

12. Har bir fuqaro – saylovchi bir ovozga ega va boshqa fuqarolar bilan tengma teng tarzda o‘zining ana shu ovozga egalik huquqini amalga oshira oladi. Bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha ovoz berishda ushbu okruglar tenglik asosida tashkil etilishi ta‘minlanadi. Bir mandatli saylov okruglarining saylovchilar soniga qarab tuzilishi tenglikka amal qilishning o‘ziga xos mezonidir. Teng saylov huquqi prinsipi «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonunning nechanchi moddasida mustahkamlangan?

- A) 2-moddasida
- B) 3-moddasida
- C) 4-moddasida
- D) 5-moddasida

13. Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan mamlakatlarni ko‘rsating.

- A) SHvetsiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya
- B) Daniya, Norvegiya, Islandiya, Meksika
- C) Germaniya, AQSH, Fransiya, Tailand
- D) Ispaniya, Buyuk Britaniya, YAponiya, Xitoy

14. 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga qanday masalalar kiritilgan?

- A) mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari
- B) ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar rivojlantirishning konseptual masalalari
- C) ijtimoiy, madaniy, siyosiy xayot sohalarining moddiy asosini rivojlantirish masalalari
- D) barcha javoblar to‘g‘ri

15. 2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning bo‘yicha Harakatlar strategiyasining to‘rtinchi yo‘nalishi qanday nomlanadi?

- A) davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish.
- B) xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.
- C) ijtimoiy sohani rivojlantirish.

D) iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish.

16. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamoat birlashmalar haqidagi bobida nechta modda mavjud?

- A) 6 ta
- B) 7 ta
- C) 8 ta
- D) 9 ta

17. Aynan bir vaqtda qabul qilingan qonunlarni ko‘rsating.

- A) “Axborotlashtirish to‘g‘risida”, “Noshirlik faoliyati to‘g‘risida”
- B) “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”, “Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to‘g‘risida”
- C) “Reklama to‘g‘risida”, “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”
- D) “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”

18. Quyidagi qaysi normativ huquqiy hujjat orqali ta‘lim va yoshlar bo‘yicha yaratilayotgan axborot resurslari yagona “ZiyoNET” milliy ta‘lim tarmog‘iga birlashtirilgan?

- A) “O‘zbekiston Respublikasining jamoat ta‘lim axborot tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan
- B) «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan
- C) «Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash kafolatlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan
- D) «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla iftixori" ko‘krak nishonini ta‘sis etish to‘g‘risida"gi PQ-3132-son Qarori qachon qabul qilingan?

- A) 13.04.2017 y.
- B) 13.05.2017 y.
- C) 13.06.2017 y.
- D) 13.07.2017 y.

20. Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2017 yil 3 fevral, PF-4944-son) ga ko‘ra, mahalla institutini yanada takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari etib nimalar belgilanmagan?

- A) fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o‘rni va rolini yanada kuchaytirish, ularni joylarda xalqning chinakam maslakdoshi va ko‘makdoshiga aylantirish; jamiyatimizda o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini shakllantirishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-

avaylash hamda rivojlantirishda mahallalarning ahamiyati va nufuzini yanada oshirish

B) yoshlarni ma'naviy boy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularning bandligini ta'minlash, yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini, keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlash; jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirishda mahallalarning bevosita ishtirokini kengaytirish

C) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning hamda ular faoliyatini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish, mahalla tizimida yagona huquqni qo'llash amaliyotini ta'minlash

D) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining oylik maoshlariga 25% ustama belgilangan holda aholining turmush darajasini oshirishiga qaratilgan yangi innovatsion g'oyalar bilan boyitib boorish